

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№11

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 366 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

YASHIL TRANSPORT SIYOSATINING BARQAROR RIVOJLANISH VA TARMOQLARARO INTEGRATSIYADAGI O'RNI.....	21
Rahmonov Rasul Ne'matovich	
BANK AKTIVLARI VA PASSIVLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	34
Safarov Sanjar Ravshan o'g'li	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI.....	38
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
HUDUDIIY XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYA MODELI	43
Maxmudova Nozimaxon Baxriddinxonovna	
DAVLATNING BUDJET SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	50
A.A. Ismailov	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINING MEXANIZMINI SAMARALI TASHKILLASHTIRISHDA MOLIYAVIIY MANBALARNI SHAKLLANTIRISHNI YO'NALISHLARI	56
Mansurov Mansur Alisherovich	
ANTIKRIZISLI BOSHQARUV TIZIMLARIDA RANGLI SIGNAL MEXANIZMLARINING FUNKSIYALARI.....	61
Aliqulov Aziz Haydarjonovich	
XODIMLARNI MOTIVATSIYALASHNING XALQARO MODELLARINI O'ZBEKISTON KORXONALARIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	66
Yormamatov Qodirjon Juraqulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT OMILLARI VA ULARNING QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	71
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI BO'YICHA XORIJ TAJRIBALARI	78
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA RIVOJLANGAN VA RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR TAJRIBASI	84
Aripov Abdulaziz Sakijonovich	
YASHIL ENERGETIKA RIVOJLANISHINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	89
Bobokulova Muhabbat Muhammadiyeva	
ELEKTRON TO'LOVLAR VA POS TIZIMLARI — KICHIK BIZNESDA SAMARASI VA XAVFLARI	93
To'liqinov Dilshodxo'ja Olim o'g'li	
MINTAQADA RAQAMLI IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	98
Yusubov In'omjon Ikram o'g'li	
SOLIQ SIYOSATINI RAQAMLI BOSHQARISH ORQALI BUDJET DAROMADLARINI BARQARORLASHTIRISH STRATEGIYASI.....	103
Xodjimatomov Xamidullo Mamirjonovich	
OZIQ-OVQAT TOVARLARI B2B BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIIY MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	108
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi	
FARMASEVTIKA SANOATIDA INVESTITSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH	113
Yaqubov Timurbek G'anibekovich	
SHAXSNI OVOZI ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA AUTENTIFIKATSIYALASH ALGORITMLARI	123
Ozoda Sabirova Shermamaxamatovna	



YASHIL IQTISODIYOT — BARQAROR RIVOJLANISH GENERATORI	129
Berdibekova Dilfuza Xoldorbekovna	
CHET EL MEHMONXONA TARMOQLARINING BRENDING STRATEGIYALARINI O'RGANISH	133
Ergashev Oybek Mamarasul o'g'li	
MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING MOLIVAVIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	144
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
TRANSPORT TIZIMI SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHİYATINI BAHOLASH YO'NALISHLARI	152
Ismailov Akmal Maxsudovich, Abilqosimova Shaxlo Sodiқ qizi	
MEHMONXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNING O'RNI VA AHAMIYATI	158
Abduxamidov Sarvar Adxamovich, Normurodov Tal'at Normurod o'g'li	
KORXONALARDA HR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	163
Aminova Shaxnoza Aziz qizi	
JAHON IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT XAFSIZLIK RO'LI	168
Abdusamatov Barkamol Rustamjon o'g'li	
ТУРИСТИЧЕСКИЕ РЕСУРСЫ КАРАКАЛПАКСТАНА И СУЩЕСТВУЮЩАЯ ИНФРАСТРУКТУРА	174
Хошимова Камилла Навфал қизи	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARI: REKREATIONS TURIZM SOHASIDA QO'LLASH TAJRIBASI VA ISTIQBOLLARI	184
Najmitdinov G'ayratbek Sharifovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA VIRTUAL TA'LIM PLATFORMALARI: TEXNIK VA PEDAGOGIK TALABLAR, TIZIMLI TAHLIL VA IQTISODIY JIATLAR	189
Turayeva Adiba Ikramovna	
ICHKI AUDIT TIZIMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	193
Nuridinova Barchinoy Xusniddin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTIDA SUV RESURLARIDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	199
Xaitbaev Jasurbek Otaxanovich	
MINTAQANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	204
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	210
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
ISLOMIY MOLIVALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELEKTNING DOLZARBLIGI	217
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
JISMONIY SHAXSLARNING MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MASALALARI	222
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	225
Abdukhalikova Komila Abdukhalikovna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	229
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI: TAHLIL VA TAKLIFLAR	233
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	238
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISHDA YASHIL MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY JIATLARI	245
Xalikov S. X.	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORIDA KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	245
Xudayberganov Jasur Baxodirovich	
WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF STATE FINANCIAL REGULATION MECHANISMS IN ENSURING THE CAPITALIZATION OF INSURANCE ORGANIZATIONS	251
Abdullaev Erkinjon Azamovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BYUDJETLASHTIRISH JARAYONINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	257
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XODIMLARNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	261
Jobborov Anvar Egamberdiyevich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RESURSLARNI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH.....	268
Avulchayeva Feruza Jurakuziyevna	
BANKLARDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN RAQAMLI YECHIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
ZAMONAVIY ISH JOYLARINI SHAKLLANTIRISHDA AYOLLARNING ROLI	276
Tulyaganova Aziza	
ISLOMIY MOLIYALASHTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNING DOLZARBLIGI.....	281
Nazarov Nodirjon Namoz o'g'li	
TURIZM MARKETINGINING NAZARIY ASOSLARI, ZAMONAVIY YO'NALISHLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	286
Xamidov Otabek Bakidjanovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINING IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TIZIMINI STATISTIK BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI	290
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
ЭКОЛОГАМ ПОЧЕТ И УВАЖЕНИЕ	298
Максудова Шахиста	
DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNING MOHIYATI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENTSIYALARI	304
Jo'raev Farruxbek Muxiddin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYALASHTIRISH XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	307
Inomjonov Islomjon Iloxomjon o'g'li	
ENTREPRENEURSHIP AND BUSINESS MANAGEMENT IN UZBEKISTAN	311
Abdukhalkova Komila Abdukhalkovna	
МОБИЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ИНЖЕНЕРОВ.....	315
Хурамова Фарангиз Учкун кизи	
ЦИФРОВИЗАЦИЯ НАЛОГОВ И АКЦИЗНАЯ РЕФОРМА УЗБЕКИСТАНА В ВТО	319
Дамир Рустамович Абдулов	
BANK TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR SHAROITIDA LIKVIDLILIK RISKINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	324
Alimov Baxtiyor Murodovich	
BANK AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	335
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH MASALALARI.....	343
Abdimuminova Saodat Taxirjonovna	
TO'QIMACHILIK SANOAT MAXSULOTLARI EKSPORT FAOLIYATI TAHLILI VA BRENDDA LIDERLIK TUSHINCHALARI	352
Abdulazizova Xushnoza Nayabovna	



ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ МОДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ ОТХОДАМИ НА ОСНОВЕ ОПЫТА РАЗВИТЫХ СТРАН И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ АДАПТАЦИИ В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	357
Д. Мейлиева	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TIZIMIDA KASBDOSHLAR TOMONIDAN BAHOLASH (PEER REVIEW) TIZIMINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	361
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	



YASHIL TRANSPORT SIYOSATINING BARQAROR RIVOJLANISH VA TARMOQLARARO INTEGRATSIYADAGI O'RNI



Rahmonov Rasul Ne'matovich

i.f.n., professor,

Toshkent shahridagi Webster universiteti ijrochi direktori

ORCID: 0009-0006-3625-7432

Email: rasulbek.rahmonov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada transport sohasini barqaror rivojlantirishda yashil transformatsiya konsepsiyasining mazmun-mohiyati hamda uning amalga oshirilishida tarmoqlararo integratsiyaning o'rni tahlil qilingan. Energetika, axborot texnologiyalari, ekologiya va shaharsozlik sohalari bilan o'zaro bog'liq holda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish masalalari yoritilgan. Shuningdek, yashil logistika, aqlli transport tizimlari va kam uglerodli transport siyosati kabi yo'nalishlar orqali iqtisodiy samaradorlik hamda ekologik barqarorlikka erishish imkoniyatlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yashil transformatsiya, barqaror rivojlanish, transport siyosati, energiya tejamkorlik, raqamli boshqaruv, tarmoqlararo integratsiya, yashil iqtisodiyot.

Abstract. The article analyzes the essence of the green transformation concept in the sustainable development of the transport sector and the role of intersectoral integration in its implementation. It highlights issues related to the modernization of transport infrastructure in connection with the energy, information technology, ecology, and urban planning sectors. The paper also discusses the opportunities to achieve economic efficiency and environmental sustainability through green logistics, intelligent transport systems, and low-carbon transport policies.

Key words: transport sector, green transformation, sustainable development, intersectoral integration, green logistics, intelligent transport systems, low-carbon policy, environmental efficiency.

Аннотация. В статье проанализирована сущность концепции зелёной трансформации в устойчивом развитии транспортной отрасли и роль межотраслевой интеграции в её реализации. Освещены вопросы модернизации транспортной инфраструктуры во взаимосвязи с энергетикой, информационными технологиями, экологией и градостроительством. Также рассмотрены возможности достижения экономической эффективности и экологической устойчивости через зелёную логистику, интеллектуальные транспортные системы и политику низкоуглеродного транспорта.

Ключевые слова: транспортная отрасль, зелёная трансформация, устойчивое развитие, межотраслевая интеграция, зелёная логистика, интеллектуальные транспортные системы, низкоуглеродная политика, экологическая эффективность.

KIRISH

So'nggi yillarda global miqyosda barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan iqtisodiy islohotlar keng qo'llanilmoqda. Transport tizimi bu jarayonda strategik ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki ekologik xavfsizlik, resurs tejamkorlik va ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlovchi tarmoq hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" (2023)da ta'kidlanganidek, mamlakatning barqaror taraqqiyoti ko'p jihatdan transport infratuzilmasining ekologik



samaradorligi va innovatsion rivojlanish darajasiga bog'liq [1]. Shu nuqtayi nazardan, transport sohasida yashil transformatsiyani amalga oshirish tarmoqlararo hamkorlik hamda integratsiyani talab etadi.

Yashil transformatsiya – bu zamonaviy iqtisodiyotni ekologik barqarorlik tamoyillari asosida qayta shakllantirishga qaratilgan strategik yo'nalish bo'lib, u barcha tarmoqlar qatorida transport sohasi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Transport tizimi jahon miqyosidagi uglerod chiqindilarining taxminan 20–25 %ini tashkil etishi, energiya sarfining katta qismini egallashi va shahar muhitining ifloslanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatishi bilan tavsiflanadi [2]. Shu sababli, ushbu sohada yashil transformatsiyani amalga oshirish nafaqat ekologik, balki ijtimoiy hamda iqtisodiy barqaror rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil transport siyosatini o'rganish so'nggi yillarda barqaror rivojlanish strategiyasining markaziy yo'nalishiga aylandi. Roman o'zining “Sustainable Transport: A State-of-the-Art Review” nomli tadqiqotida yashil transport siyosatining uch asosiy ustunini ajratib ko'rsatadi: emissiyalarni kamaytirish, jamoat va faol harakat infratuzilmasini kengaytirish hamda transport tizimini raqamlashtirish orqali samaradorlikni oshirish. Tadqiqot natijalari transport sektorining energetik samaradorligi va ekologik xavfsizligini oshirish milliy iqtisodiy barqarorlik bilan bevosita bog'liqligini isbotlaydi.

Jacyna-Golda intermodal yuk tashish tizimlarining barqaror rivojlanishdagi o'rnini tahlil qilib, yo'l, temir yo'l va suv transporti o'rtasidagi integratsiya orqali chiqindilarni sezilarli kamaytirish mumkinligini ko'rsatgan. U transport infratuzilmasida raqamli boshqaruv va “track-and-trace” texnologiyalarini joriy etish yuk oqimlarini optimallashtirishga va yoqilg'i sarfini kamaytirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Goodarzi va hamkorlari intermodal tarmoqlar uchun stoxastik modellashirish yordamida transport tizimining chidamliligini oshirishni taklif etgan; ular raqamli optimallashtirish yondashuvlari yordamida yashil transport siyosatini iqtisodiy jihatdan ham barqaror qilish mumkinligini ilmiy asoslagan.

Yevropa Komissiyasining “Sustainable and Smart Mobility Strategy” hujjatida yashil transport siyosatining uch yo'nalishli modeli ilgari surilgan: ekologik barqarorlik, raqamlashtirish va chidamlilik. Ushbu strategiyada elektromobilitetni rag'batlantirish, jamoat transportini kengaytirish va multimodal yo'lovchi tizimlarini rivojlantirish asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. World Bank ekspertlari ham Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun transport dekarbonizatsiyasi siyosatini iqtisodiy o'sishning yangi drayveri sifatida baholaydi va energiya samarador transport infratuzilmasiga investitsiyalarni muhim deb hisoblaydi.

UNESCAP tomonidan ishlab chiqilgan “Sustainable Freight Transport Strategy for Uzbekistan” konsepsiyasida mamlakat transport tizimining barqarorlik salohiyatini oshirish uchun ekologik toza yuk tashish yo'nalishlarini kengaytirish, temir yo'l tarmog'ini modernizatsiya qilish va elektromobil infrastrukturasi joriy etish taklif etilgan. Asian Transport Observatory ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston transport sektori iqtisodiy o'sishning asosiy manbalaridan biri bo'lishi bilan birga, chiqindilar hajmining ham 15 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Shu sababli, yashil transport siyosati nafaqat ekologik, balki makroiqtisodiy barqarorlik nuqtayi nazaridan ham strategik ahamiyatga ega.

Aloui o'zining tahliliy ishida barqaror yuk tashish jarayonlarida hamkorlik va tarmoqlararo koordinatsiyaning roliga e'tibor qaratadi. U davlat siyosati, xususi sektor va jamiyat o'rtasidagi hamkorliksiz yashil transport strategiyalarining amaliy samarasi past bo'lishini ta'kidlaydi. Shu nuqtada tarmoqlararo integratsiya nafaqat infratuzilma darajasida, balki boshqaruv, moliyalashtirish va innovatsiyalar tizimi orqali ham amalga oshirilishi lozim.

Umuman olganda, zamonaviy ilmiy manbalar yashil transport siyosatini ekologik, iqtisodiy va texnologik omillarni uyg'unlashtiruvchi kompleks tizim sifatida talqin etadi. Bu siyosatning muvaffaqiyati raqamli boshqaruv, intermodal integratsiya va xalqaro hamkorlik mexanizmlarini birlashtirishga bog'liq. Shu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar O'zbekiston uchun ham strategik yo'l xaritasini ishlab chiqishda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar xalqaro tashkilotlar (World Bank, UNESCAP, European Commission) va milliy statistika hisobotlaridan olingan bo'lib, ular transport sektorining ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi. Analitik qiyoslash, tendensiya tahlili hamda intermodal integratsiya samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar orqali natijalar statistik jihatdan asoslab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil transport tizimi – bu faqat elektr yoki gibrid transport vositalarini joriy etish emas, balki butun logistika zanjirini, infratuzilmani va boshqaruv mexanizmlarini qayta tashkil etishni nazarda tutadi [3]. Bu jarayonda uchta asosiy yo'nalish ajralib turadi: texnologik, ekologik va institutsional o'zgarishlar.



Texnologik yo'nalish transport vositalarini modernizatsiya qilish, energiya tejamkor dvigatellarni, elektr va gibrid tizimlarni keng qo'llashni o'z ichiga oladi. Elektromobillar va vodorod yoqilg'isida ishlaydigan transport turlari nafaqat atmosferaga chiqindilarni kamaytiradi, balki ishlab chiqarish sohaslarida yangi innovatsion yo'nalishlarning rivojlanishiga turtki beradi [4].

Ekologik yo'nalish qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, uglerod izini qisqartirish va "yashil infratuzilma"ni yaratishni o'z ichiga oladi. Masalan, transport terminallarida quyosh panellari o'rnatish, energiya tejaydigan yoritish tizimlarini qo'llash va ekologik tozaligi yuqori bo'lgan qurilish materiallaridan foydalanish bu yo'nalishdagi amaliy choralar sirasiga kiradi [5].

Institutsional yo'nalish "aqlli logistika" va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali yo'l yuklamasini kamaytirish, harakat yo'nalishlarini optimallashtirish va transport oqimini samarali boshqarishni nazarda tutadi [6]. Bunday tizimlar transport harakatini monitoring qilish, yo'llardagi tirbandlikni kamaytirish hamda yoqilg'i sarfini qisqartirish imkonini beradi. Shu bilan birga, yashil transport siyosatini amalga oshirish mamlakat iqtisodiyoti uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Birinchidan, energiya samaradorligining oshishi yoqilg'i xarajatlarini qisqartiradi va iqtisodiy tejamkorlikka olib keladi. Ikkinchidan, mahalliy ishlab chiqarish korxonalari uchun yangi bozorlar — ya'ni elektr transport vositalari, zaryadlash stansiyalari hamda ekotexnologiyalar sohasidagi talab shakllanadi [7]. Uchinchidan, yashil transport tizimining rivojlanishi shahar muhitining sifatini yaxshilaydi, aholi sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va barqaror shahar rivojlanishining ajralmas qismiga aylanadi [8].

Transport sohasida yashil transformatsiya – bu faqat texnik yangilanish emas, balki yangi ekotizim yaratish jarayonidir. U energiya tejamkorlik, raqamli boshqaruv va ekologik mas'uliyatni uyg'unlashtirgan holda transport infratuzilmasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Transport tizimini barqaror rivojlantirish jarayonida tarmoqlararo integratsiya, ya'ni turli iqtisodiy sohaslar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda hamkorlikni ta'minlash hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida transport tizimi mustaqil faoliyat yurituvchi tuzilma sifatida emas, balki energetika, axborot texnologiyalari, shaharsozlik va ekologiya sohalari bilan uzviy bog'langan kompleks tizim sifatida qaraladi. Bunday integratsiyaning ilmiy-amaliy asosi kompleks yondashuv va funksional bog'lanishlar nazariyasiga tayanadi.

Unga ko'ra, transport tizimi boshqa sohaslar bilan resurs, texnologiya va ma'lumotlar almashinuvi orqali bir butun iqtisodiy va ekologik muhitni tashkil etadi. Shu sababli, har bir sohadagi innovatsion yechimlar transport tizimi samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Transport sohasida yashil energetika resurslaridan foydalanish integratsiyaning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [9]. Elektr va gibrid transport vositalarini keng joriy etish energiya ta'minoti tizimida yangi talablarni yuzaga keltiradi. Bu esa elektr quvvatini samarali taqsimlash, quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanuvchi manbalarni transport infratuzilmasiga jalb etishni talab qiladi. Masalan, shaharlar atrofida quyosh panellari yordamida ishlaydigan zaryadlash stansiyalarini yaratish nafaqat ekologik samaradorlikni oshiradi, balki energiya tejamkorlikni ham ta'minlaydi. Shu yo'nalishda O'zbekistonda ham qayta tiklanuvchi energiya manbalarini transport sohasiga integratsiya qilish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda [10].

Axborot texnologiyalari bilan integratsiya transport sohasini raqamli iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylantirib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali "aqlli transport tizimlari" (Intelligent Transport Systems – ITS) shakllanmoqda [11]. Bunday tizimlar sensorlar, GPS, Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalari orqali transport oqimini boshqarish, yo'llardagi tirbandlikni kamaytirish, yoqilg'i sarfini hamda chiqindilarni qisqartirish imkonini beradi [12]. Shu bilan birga, raqamli boshqaruv tizimlari logistika jarayonlaridagi operatsiyalarni avtomatlashtirib, inson omili ta'sirini kamaytiradi va transport xizmatlarining sifatini oshiradi.

Shaharsozlik va ekologiya bilan integratsiya shahar muhitida transport tizimi hamda shaharsozlik sohasi o'rtasidagi bog'liqlik alohida ahamiyatga ega. Infratuzilmani rejalashtirishda ekologik toza, piyodalar va velosipedlar uchun qulay harakat muhitini yaratish, shuningdek yashil hududlar bilan uyg'unlashtirilgan yo'l tizimlarini shakllantirish zamonaviy urbanistik yondashuvning asosini tashkil etadi [13]. Bu nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki aholining sog'lom turmush tarzi, transport xavfsizligi va shahar estetikasini ham yaxshilaydi. Shu bois, shaharsozlik siyosatini transport strategiyalari bilan uyg'unlashtirish "yashil shaharlar" konsepsiyasini amalga oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, tarmoqlararo integratsiya transport sohasidagi barqaror rivojlanishning ilmiy va amaliy poydevorini tashkil etadi. U nafaqat texnologik samaradorlikni oshiradi, balki iqtisodiy resurslarni tejash, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va innovatsion o'sishni rag'batlantiradi.

Tarmoqlararo integratsiyaning amaliy natijalari quyidagilarda namoyon bo'ladi: transport va energiya tizimlari o'rtasidagi muvofiqlashuv orqali resurslar tejaladi; raqamli boshqaruv texnologiyalari operatsiyalarni tez va aniq bajarish imkonini beradi; shahar infratuzilmasining ekologik yuklamasi kamayadi, iqtisodiy xarajatlar qisqaradi va xizmatlar samaradorligi oshadi.



Shuningdek, integratsiya jarayonida davlat boshqaruvi, xususi sektor va ilmiy muassasalar o'rtasidagi hamkorlik muhim rol o'ynaydi. Innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun huquqiy baza, moliyaviy rag'batlantirish tizimi hamda kadrlar salohiyatini kuchaytirish talab etiladi.

Umuman olganda, transport sohasidagi tarmoqlararo integratsiya – bu faqat iqtisodiy samaradorlikka emas, balki barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikka xizmat qiluvchi tizimli yondashuvdir. U energetika, axborot texnologiyalari va shaharsozlik sohalarning o'zaro uyg'unligi asosida transport infratuzilmasini yangi bosqichga olib chiqadi. Natijada, transport tarmoqlari nafaqat tezkor va qulay, balki ekologik toza, raqamli va barqaror tizim sifatida shakllanadi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda transport sohasidagi yashil transformatsiya muhim o'rin tutadi. Transport sektori mamlakat yalpi ichki mahsulotida katta ulushga ega bo'lishi bilan birga, atmosferaga chiqariladigan uglerod gazlarining salmoqli qismini ham tashkil etadi. Shu sababli, yashil transport siyosatini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanadi [14].

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini amalga oshirish doirasida transport tizimini ekologik yo'nalishda isloh qilish bo'yicha bir qator strategik dasturlar qabul qilingan [15]. Xususan, "Yashil o'sish milliy strategiyasi (2023–2030-yillar)", "2030-yilgacha barqaror transport tizimini rivojlantirish konsepsiyasi" hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturlari ushbu yo'nalishdagi amaliy choralarni belgilab berdi [16]. Bu hujjatlarda transport sohasini energiya tejamkor, raqamli va ekologik barqaror tizim sifatida qayta qurish maqsad qilingan bo'lib, quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- elektr avtobuslar va elektromobillar uchun zaryad stansiyalarini yaratish;
- temir yo'l tizimini energiya tejamkor texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish;
- "yashil logistika" va "aqlli transport tizimlari"ni joriy etish;
- shahar transport tizimini raqamlashtirish va chiqindilarni kamaytirish.

O'zbekistonda yashil transport siyosatini amalga oshirish natijasida qator ijobiy iqtisodiy va ekologik natijalarga erishish mumkin:

- energiya tejamkor elektr transport vositalari yoqilg'i importiga bo'lgan ehtiyojni qisqartiradi va milliy energetika tizimiga bosimni kamaytiradi;
- iqtisodiy diversifikatsiya asosida elektrotransport, akkumulyator ishlab chiqarish hamda zaryad stansiyalari qurilishi kabi yangi ish o'rinlari yaratiladi;
- ekologik ta'sirni kamaytirish orqali uglerod chiqindilarini qisqartirish natijasida havo sifati yaxshilanadi;
- turizm va shahar muhitini rivojlantirish – ekologik toza transport vositalari shahar estetikasini hamda turizm salohiyatini oshiradi.

O'zbekistonda transport sohasini barqaror va ekologik samarali rivojlantirish jarayonida yashil transformatsiya hamda tarmoqlararo integratsiya bir-birini to'ldiruvchi ikki muhim strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu ikki konsepsiyaning uyg'unligi mamlakatdagi transport siyosatini nafaqat sohaviy modernizatsiya, balki iqtisodiy, ekologik va texnologik sohalarni qamrab olgan kompleks islohotlar tizimi sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Yashil transformatsiyaning mohiyati iqtisodiy faoliyatni ekologik barqaror, energiya tejovchi va innovatsion asosda qayta tashkil etishdan iborat bo'lsa, tarmoqlararo integratsiya bu jarayonning amaliy mexanizmidir. Ya'ni, transport tarmog'ining boshqa sohalar — energetika, axborot texnologiyalari, shaharsozlik va ekologiya bilan uzviy bog'liqligi yashil islohotlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Transport tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish yashil transformatsiyaning eng muhim bosqichlaridan biridir. Elektr va gibrid transport vositalarini joriy etish uchun energetika tarmog'i bilan hamkorlikda qulay infratuzilma yaratish, ya'ni quyosh, shamol va biomassa manbalaridan elektr energiyasi ishlab chiqish hamda uni transport infratuzilmasiga integratsiya qilish talab etiladi [17]. Bu nafaqat energiya resurslariga bo'lgan bog'liqlikni kamaytiradi, balki uglerod izini qisqartirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, shaharlardagi elektr zaryad stansiyalarini qayta tiklanuvchi manbalar orqali ta'minlash energiya tizimi va transport sektori o'rtasidagi samarali bog'liqlikni ko'rsatadi [18].

Raqamli boshqaruv tizimlari va "aqlli logistika" texnologiyalari yashil transport siyosatining intellektual poydevorini tashkil etadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida transport oqimini onlayn tarzda boshqarish, yo'llardagi harakat zichligini aniqlash va optimal yo'nalishlarni belgilash imkoniyati yaratiladi. Bu nafaqat vaqt hamda energiya sarfini kamaytiradi, balki chiqindilar miqdorini ham qisqartiradi. Shuningdek, raqamli platformalar orqali shaxsiy va jamoat transportlarini birlashtiruvchi integratsiyalashgan "aqlli transport ekotizimi"ni yaratish imkoniyati vujudga keladi [19].

Shahar infratuzilmasini transport siyosatining ajralmas qismi sifatida ko'rish — yashil transformatsiyaning muhim yo'nalishidir. Shaharsozlik sohasi bilan uyg'unlikda "yashil yo'llar", velosiped yo'laklari, piyodalarga qulay hududlar hamda jamoat transportlariga moslashgan markazlashgan infratuzilma barpo etiladi. Bu esa



avtomobillarga bo'lgan ortiqcha ehtiyojni kamaytiradi, shahar ekotizimini yaxshilaydi va aholi salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa, shaharsozlik va transport siyosatining birlashuvi jamoat transportini ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi [20].

Ekologik standartlarning joriy etilishi yashil transport siyosatining tarmoqlararo integratsiyadagi hal qiluvchi bo'g'inidir. Chiqindilarni qayta ishlash, atmosferaga chiqadigan gazlarni kamaytirish, energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish kabi choralar orqali transport tizimi ekologik xavfsizlik talablariga moslashtiriladi. Bunda ekologik monitoring tizimlari va "yashil sertifikatlash" standartlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Transport sohasidagi yashil transformatsiyaning samaradorligi uning boshqa sohalar bilan chuqur va tizimli hamkorligiga bog'liq. Bu integratsiya nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ilmiy-innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi hamda ekologik barqarorlikni ta'minlaydi. O'zbekiston sharoitida bu jarayon milliy "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi doirasida amalga oshirilib, xalqaro standartlarga mos ekologik siyosatni yuritish imkonini yaratadi.

O'zbekistonda yashil transport siyosati strategik jihatdan mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan chambarchas bog'langan. Bu siyosat nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, energiya resurslaridan samarali foydalanish va aholining hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir. Shu nuqtayi nazardan, yashil transport sohasi mamlakatning "yashil iqtisodiyot" modelida muhim strategik bo'g'in sifatida namoyon bo'lmoqda. Yashil transport siyosatining strategik ahamiyati, avvalo, iqtisodiy diversifikatsiya va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda ko'rinadi. Elektr va gibrid turdagi transport vositalarini joriy etish nafaqat neft mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi, balki mamlakatning energetik xavfsizligini mustahkamlaydi.

Iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda, yashil transportning ijtimoiy va ekologik ahamiyati ham juda katta. Havo ifloslanishining kamayishi, transport shovqinining pasayishi va shahar muhitida yashash sharoitlarining yaxshilanishi aholining sog'lom turmush tarziga xizmat qiladi. Shu bois, O'zbekistonda yashil transport siyosatini amalga oshirish faqat iqtisodiy islohot emas, balki ekologik madaniyatni yuksaltirish hamda fuqarolarning ekologik ongini shakllantirish jarayonining muhim qismi sifatida qaralmoqda.

Kelajakda mamlakatda yashil transportni rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarda davom etadi [21]:

- mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish – elektr transport vositalari, akkumulyatorlar va zaryad uskunalari mahalliy korxonalarda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali importga bog'liqlikni kamaytirish;
- zaryad infratuzilmasini rivojlantirish – barcha viloyat va shaharlarda qulay zaryad stansiyalarini yaratish hamda ularni qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan ta'minlash;
- raqamli transport boshqaruv tizimlari – "Aqlli shahar", "aqlli yo'llar" va "aqlli logistika" tizimlarini joriy etish orqali transport oqimini optimallashtirish va energiya sarfini kamaytirish;
- ijtimoiy rag'batlantirish siyosati – elektr transportdan foydalanuvchilar uchun soliq imtiyozlari, kredit hamda subsidiya dasturlarini joriy etish;
- xalqaro hamkorlikni kuchaytirish – Yevropa Ittifoqi, Jahon banki va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda yashil transport loyihalarini moliyalashtirish hamda tajriba almashish.

Ushbu chora-tadbirlar O'zbekistonning 2030-yilgacha mo'ljallangan "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ga to'liq mos keladi va mamlakatni global "yashil iqtisodiyot" tendensiyasiga moslashtirishda muhim qadam hisoblanadi. Kelgusida yashil transport sektori nafaqat ekologik afzallik, balki yangi texnologik va iqtisodiy imkoniyatlar manbai sifatida ham strategik ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda yashil transport siyosatining ustuvor yo'nalishlari nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik barqarorlik, resurs tejamkorlik hamda aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan. Bu siyosat milliy iqtisodiyotning yangi — ekologik-innovatsion bosqichini belgilab, O'zbekistonni Markaziy Osiyo mintaqasida yashil rivojlanish bo'yicha yetakchi davlatlardan biriga aylantirish salohiyatiga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Transport sohasidagi yashil transformatsiya va tarmoqlararo integratsiya mamlakat iqtisodiyotini ekologik hamda texnologik jihatdan yangi bosqichga olib chiquvchi strategik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yashil transport tizimini rivojlantirish nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi, balki energiya tejamkorlik va innovatsion faoliyatni rag'batlantiradi.

Elektr va gibrid transport vositalarini joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, "aqlli transport tizimlari" hamda raqamli boshqaruv platformalarini tatbiq etish transport infratuzilmasining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, shaharsozlik va ekologiya bilan uyg'unlashgan transport siyosatini amalga oshirish aholining hayot sifatini yaxshilash, shahar muhitining ekologik barqarorligini ta'minlash hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.



O'zbekistonda qabul qilingan strategik dasturlar mamlakat transport siyosatini ekologik, raqamli va innovatsion rivojlanish yo'liga yo'naltirmoqda. Yashil transport siyosati O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot" modelidagi asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib, u iqtisodiy samaradorlik, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni uyg'unlashtiruvchi milliy strategiyaning ajralmas qismiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. IPCC. *Climate Change 2022: Mitigation of Climate Change*. Geneva, 2022.
2. UNECE. *Transport Trends and Economics Report*. Geneva, 2022.
3. IEA. *Global EV Outlook 2024*. Paris: International Energy Agency, 2024.
4. World Bank. *Green Infrastructure and Sustainable Mobility Report*. Washington D.C., 2023.
5. ITF. *Smart and Sustainable Transport Systems*. Paris, 2022.
6. UNDP Uzbekistan. *Green Economy Transition Strategy 2023–2030*. Tashkent, 2023.
7. OECD. *Urban Sustainability and Low-Carbon Mobility*. Paris, 2021.
8. IEA. *Global EV Outlook 2024*. Paris: International Energy Agency, 2024.
9. Ministry of Energy of Uzbekistan. *Renewable Integration Strategy 2030*. Tashkent, 2023.
10. European Commission. *Intelligent Transport Systems Directive (ITS)*, Brussels, 2023.
11. McKinsey & Company. *The Future of Mobility 2035: Smart Infrastructure and AI*. 2022.
12. World Bank. *Green Urban Infrastructure Development*. Washington D.C., 2023.
13. Rodrigue, J.-P. *The Geography of Transport Systems*. Routledge, 2021.
14. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "2030 йилгача барқарор транспорт тизимини ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида"ги қарори, 2023 йил.
15. Ўзбекистон Республикаси Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги. "Рақамли Ўзбекистон – 2030" дастури. Тошкент, 2020.
16. Asian Development Bank (ADB). *Uzbekistan: Sustainable Urban Mobility Plan*. Manila, 2022.
17. Ministry of Energy of the Republic of Uzbekistan. *National Energy Efficiency Strategy 2030*. Tashkent, 2023.
18. World Bank. *Digital Transport and Climate Action Report*. Washington, 2023.
19. OECD. *Sustainable Cities and Mobility Report*. Paris, 2020.
20. UNDP. *Environmental Certification and Monitoring Systems in Transport*. Tashkent, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>